

SO'Z TARKIBIDA MORFEMANING O'RNI

*Ashurova Mahbuba*

*Qarshi davlat universiteti O'zbek tili ixtisosligi  
2-kurs tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Maqolada so'z tarkibida morfema va uning o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolada berilgan nazariyalarga mos misollar mavjud. Tavsifiy metod orqali tahlil qilingan. o'zbek tilshunosligida shu kungacha ham so'z tarkibi, morfema, o'zak morfema, morfemalar tasnifi, affiks (yoki ergash) morfema, negiz, tub negiz, yasama negiz, yasama so'z, tub suz, affiks, qo'shimcha, o'zak, asos, so'z yasovchi asos, so'z yasovchi vosita, shakl hosil kiluvchi affiks, shakl xosil qiluvchi vosita, so'z o'zgartiruvchi affiks, shakl hosil qiluvchi affiks kabi terminlar o'ziga xos mohiyatga ega

**Kalit so'zlar:** Morfema, affiks, o'zak, so'z tarkibi, tub, yasama, qo'shimcha

Morfema ham, so'z ham tilning ma'no anglatuvchi birliklari (belgilari) sanaladi. Morfemaning so'z sathida real qo'llanilishi va grammatik funksiya bajarishi izoh talab qilmaydi, albatta. Bu jarayonda shu narsa xarakterliki, morfema nafaqat o'zining funksional faolligini ta'minlash uchun, balki so'zning shakllanishi va funksional qimmatga ega bo'lishi uchun ham xizmat qiladi. So'z tilning ma'no anglatuvchi ana shu kichik birligidan tashkil topadi va buning natijasida morfemadan tubdan farq qiluvchi yangi birlik vujudga keladi.<sup>1</sup>

So'zlarning shakllanishida dastlab fonemalar uzaro munosabatga kirishgan bo'lsa, bu munosabatlar natijasi sifatida so'zlar ko'paygan bo'lsa - mavjud bo'lgan bo'lsa (axir, a, u, i, o, u, e so'zlar ham mavjud, keyinrok so'zlar ham vujudga kelgan, undan keyin temir, tur, bur kabilar ham dunyoga kelgan), keyingi bosqichda ulardan yirikroq birliklar, deyaylik, hamma tilshunoslar tan olib bo'lgan birliklar - morfemalar o'zaro munosabatga kirishgan: terim yoki terimchi, tinch Bunda alohida birlik sifatida bir-biri bilan munosabatga kirishganda ma'lum bir imkoniyatlari bilangina qatnashadigan, birlashganda alohida, o'ziga xos ma'no ifodalaydigan yuqori bosqich birliklari o'zaro bog'lanadi. Ular boshqa-boshqa mavqega ega bo'lgan birliklardir. So'z yasalishida ular bir xil mavqeda bo'lmasa-da, bir xil qiymatga ega bo'ladi. Ya'ni ulardan biri bo'lmasa, so'z yasalishi haqida gapirib bo'lmaydi, sz yasalmaydi (ayniqsa, shu usulda). Ana shunday har xil mavqega, lekin bir xil qiymatga ega bo'lgan birliklar munosabati asosida so'zning morfologik tarkibi shakllanadi: yasamalik vujudga keladi – so'z alohida-alohidda ma'noli qismlardan iborat tuzilishga ega bo'ladi. Har bir narsaning alohida mohiyat bilan bog'lanuvchi tuzilishi esa, ma'lumki, ana shunday

<sup>1</sup> Хайруллаев X.3.Ta'limi Сўз таркибида морфемалар муносабатига доир айrim мулоҳазалар, Maqola

muhim ahamiyatga ega bo‘lgan birlklardan iborat bo‘ladi: o‘simliklar morfologiyasi, hayvonlar morfologiyasi kabi. Ko‘rinadiki, so‘z ham (yasama so‘z - keng ma’noda) ana shunday ahamiyatli morfologik tuzilishga ega bo‘ldi.

Shu holatda shakllangan birlik xam morfologik tuzilishga ega bo‘ladi. Demak, kar ikki holatda xam so‘z morfologik tuzilish kasb etadi. Biri lug’aviy birlik (yasalma) tarzida, ikkinchisi esa so‘zshakl tarzida. Tilshunoslikda, jumladan, ayniqsa, o‘zbek tilshunosligida «so‘zning morfologik tarkibi» yoki «so‘zning morfologik tuzilishi» terminlari ostida, ya’ni keng ma’noda tanlanib, uch holatga nisbatan olingan hodisalar tushunildi: a)so‘zning morfem tarkibi; b)so‘zning so‘z yasalish tarkibi; v)so‘zning shakl yasalish tarkibi. Ma’lumki. keng ma’nodagi yasama so‘zlar (lug’aviy birliklar va so‘zshakllar ana shu uch jihatga ko‘ra tahlil qilinadi: a)so‘z tarkibida (qismlardan iborat so‘z tarkibida) nechta va qanday morfemalar mavjudligiga ko‘ra: terimchilarimizga so‘zi tarkibida oltita morfema bor (ma’no anglatadigan kim bor); ikki xil morfema bor: )yetakchi morfema bor morfema, o‘zak morfema, asosiy morfema terminlari bilan yuritilyapti, ulardan bittasini tanlash juda zarur, menimcha, yetakchi morfema terminini tanlash maqsadga muvofiqdir, biroq mohiyat jihatdan ularning har biri o‘zaro teng bo‘lib, tildagi ma’lum bir hodisani qayd etadi, affiks ko‘rinishidagi morfemadan farq - qiluvchi, unga nisbatan mavqeyi boshqacharoq bo‘lgan, xususiyatlari o‘ziga xos bo‘lgan til hodissasini qayd etadi. Uning tub mohiyati shu va buni hamma yetakchi tilshunoslar tan oladi. Yetakchi morfema morfologik tarkibga ega bo‘lgan so‘zlar tarkibida boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydigan, ma’no anglatadigan birlik tushunchasini qayd etish uchun ishlataladi. Keltirilgan terminlarning qaysi biri tanlab olinsa ham ana shu mohiyatni qayd etadi; 2) ergash morfemalar bor - 5ta (bu termin o‘rnida affiksal morfema, affiks morfema, yordamchi morfema, kam hollarda, qo‘srimcha ko‘rinishidagi morfema terminlari ham ishlatilyapti). Bu terminlar qatoriga so‘z yasovchi morfema, shakl yasovchi morfema terminlari ham qo‘shiladi. Terminlardan qaysi biri tanlanmasin (albatta, bittasini tanlash zarur), ular bir mohiyat, bir hodisani qayd etadi: yetakchi morfemalarga qo‘silib kelgan holda soz yasash yoki shakl yasash vazifasini bajaradigan, aniq bir ma’no ifodalaydigan tilda affiks yoki qo‘srimcha tarzida mavjud bo‘lgan hodisani qayd etadi. Buni ham hamma tilshunoslar biladi va shu kunga qadar tilshunoslikda ular ana shu mohiyatni qayd etib keladi. Demak, affiks yoki, mayli, qo‘srimcha bo‘lsin, u tildagi yetakchi morfemaga qo‘silib kelgan holda ma’no anglatadigan, vazifa bajaradigan hodisani qayd etar ekan, «ular hech narsani qayd etmaydi», - deyish xatodir. O‘zak morfema terminining o‘zi maqsadga muvofiq edi va bu umuman Yevropa tilshunosligida ham, turkologiyada ham tan olingan. Biroq, mayli, bu termin o‘zbek tilshunosligida kimgadir yoqmayotgan ekan, uning so‘z yasovchi va shakl hosil kiluvchi morfemalarni o‘ziga ergashtirib kelishini, ularga nisbatan yetakchilik kilishini nazarda tutib bu xodisaga yetakchi morfema terminini biriktirib qo‘yish umuman

mohiyatni o‘zgartirmaydi. Bu morfema hech qachon mohiyat e’tibori bilan tub so‘zga ham, umuman so‘zga xam, leksemaga ham teng emas. Boshida aytganimizdek, morfologik tuzilishga ega bo‘lgan so‘zlarda qatnashayotgan yetakchi birlik - u yoki bu konkret affiksni qabul kilgan birlik tub so‘zdan, umuman so‘zdan, leksemadan farq kiladi. Alohida olingan kitob so‘zi kitobim, kitobda so‘zlaridagi kitob qismidan farq qiladi. Yoshlik so‘zidagi -lik qo‘sishimchasi ham, yosh-qismi ham umuman -lik va umuman yosh so‘zidan ko‘p jihatlariga (ayniksa, ma’no xajmi, grammatic imkoniyati) ko‘ra farq qiladi. Demak, yoshlik so‘zi tarkibida qatnashgan yosh - qismi tub so‘z ham, alohida so‘z ham emas. U shu so‘zning yetakchi, aniq bir ma’no, shu qo‘sishimchani qabul qilish imkoniyatini namoyon kilayotgan birlikdir. Uning nomi esa shu xususiyatiga ko‘ra morfema, yetakchi morfemadir. Yosh - ham, -lik ham shu so‘zning ma’noli qismlaridir (yoshlik esa suz -yasama suzdir - mayli, leksema deylik, farki yuk). Ikkalasi bir-biriga nisbatan o‘z mohiyatini namoyish etyapti - qismlar sifatida, biri alohida olingan, boshqa imkoniyatlarga ham ega bo‘lgan yosh so‘zidan, ikkinchisi, xuddi shu kabi -lik affiksidan farq qiladigan birliklar - morfemalardir. Tildagi umumiyl holatda lug’atlarda qayd etilgan yosh so‘ziga yoshlik so‘zi tarkibidagi yosh qismi - material qismi - fonetik tuzilishiga ko‘ragina teng deyilishi mumkin, birok qiymati jihatidan ular bir-biriga teng emas.

Demak, o‘zbek tilshunosligida shu kungacha ham so‘z tarkibi, morfema, o‘zak morfema, morfemalar tasnifi, affiks (yoki ergash) morfema, negiz, tub negiz, yasama negiz, yasama so‘z, tub suz, affiks, qo‘sishimcha, o‘zak, asos, so‘z yasovchi asos, so‘z yasovchi vosita, shakl josil kiluvchi affiks, shakl xosil qiluvchi vosita, so‘z o‘zgartiruvchi affiks, shakl hosil kiluvchi affiks kabi terminlar o‘ziga xos mohiyatga ega bo‘lgan hamda bir-biridan farqlanuvchi til hodisalarini ifodalaydi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi O‘zbek adabiy tili. – Т.: Tamaddun, 2022. – бет 121.
2. Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – бет 80.
3. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Т.: Ўқитувчи, 2007. – бет 168.
4. Хайруллаев X.3.Ta’limi Сўз таркибида морфемалар муносабатига доир айrim мулоҳазалар, Maqola